

**DINLARARO BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR MA'NAVIY QIYOFASI
SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIY AHAMIYATI**

*Asadova Ra'no Baymanovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası
dotsenti.*

*Sohibov Zuhriddin Tohir o'g'li,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti tarix yo'nalishi I bosqich talabasi.*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada yoshlar ma'naviy qiyofasi, uni shakllantirishda diniy bag'rikenglikning ijtimoiy potensiali, shuningdek, yoshlarning ma'naviy fazilatlari shakllanishida konfessiyalararo totuvlikning o'rni haqida ham fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy potensial, tendensiya, konfessiya, estetika, mantiq, politologiya, sotsiologiya, diniy erkinlik, millatlararo totuvlik, kontekst, daxldorlik, ma'suliyat, ishonch.

Bugungi kunda jahonda sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy jarayonlar kishilik jamiyatining milliy va diniy tuzilishini tubdan o'zgartirdi, xususan yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasining shakllanishida o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada yuz bergan asosiy o'zgarishlardan biri shundaki, jahon sahnida nuqul bir millat va bir diniy konfessiya vakillaridan tarkib topgan jamiyatlar qolmadi. Shu tariqa zamонавија jamiyatning eng asosiy xususiyatlaridan biri ko'pmillatlilik va ko'pkonfessiyaviylik bilan bog'liq bo'lib qoldi. Shu bois ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq har qanday strategik va taktik masala ko'pmillatlilik va ko'pkonfessiyalilik atributini inobatga olgan holda, turli konfessiya vakillari manfaatlarini yagona maxrajga keltirish orqali hal qilinmoqda. Lekin kishilik jamiyatida yangi va yangi tendensiylar paydo bo'lmoqdaki, bu tendensiylar uning sohalarini tubdan o'zgartirib yubormoqda, ijtimoiy jarayonlarni keskin intensivlashtirmoqda, xalqlar va millatlar o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga batamom yangicha tus bermoqda. Ana shunday ahamiyatli tendensiyalardan biri globallashuv bilan bog'liq. Dastavval jamiyatning iqtisodiy sohasidan turtki olgan mazkur tendensiya XXI asr boshlariga kelib din sohasini ham qamradi. Xususan, mamlakatlardagi diniy vaziyat, diniy munosabatlar, diniy muammolar ham unifikatsiyalashib bormoqda. Bu jarayonlar turli konfessiya vakillarining bir biriga munosa-batida ham o'chmas iz qoldirmoqda. Eng tashvishlanarlisi, diniy globallashuv sharoitida konfessiyalararo hamjihatlikka putur yetkazadigan yangi va yangi omillar

vujudga kelmoqda. Aynan shu ijtimoiy oqibat diniy bag‘rikenglik g‘oyasi mazmuni va xususiyatlarini o‘rganish, uning ijtimoiy potentsiallarini aniqlash, diniy globallashuv sharoitida diniy bag‘rikenglik muhitidagi o‘zgarishlarni umumlashtirish, diniy bag‘rikenglik muhitini asrash imkoniyatlarini topish masalalariga dolzarb tus bermoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasida "Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini kiritdi. Bu taklif O‘zbekiston butun jahon jamoatchiliga islam dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblashini ta’kidlab o‘tdi. Shuningdek nutqda "...Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi", — deb ta’kidladi O‘zbekiston Prezidenti [1; 27-b].

MDH mamlakatlarida ham diniy dunyoqarashning ilmiy va nazariy asoslariga doir qator e’tiborga loyiq kitob va maqolalar ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilindi. Ularda diniy bag‘rikenglik jamiyat madaniyatining atributi sifatida talqin qilinadi, tolerant shaxsnı shakllantirish yo‘llari haqida mulohaza yuritiladi. Diniy bag‘rikenglik masalalariga bag‘ishlangan xorijiy manbalarda diniy bag‘rikenglikning asosiy xususiyatlarini umumlashtirishga, uning zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan aloqadorligini o‘rganilgan. Diniy bag‘rikenglik ijtimoiy munosabatlarning muhim tamoyili sifatida huquqan belgilab qo‘yilgan jamiyatlardagi bugungi tajribalar ham shundan dalolat beradi. Albatta, diniy bag‘rikenglikning ijtimoiy potensialini turli rakurslarda va turlicha talqin qilish, tavsiflash mumkin. Biroq uning eng asosiy jihatlari tahlili ham ijtimoiy ahamiyatining naqadar beqiyosligini namoyish qilish imkonini beradi. Shunday qilib, diniy bag‘rikenglikning ijtimoiy potensiali quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, diniy bag‘rikenglik milliy birdamlikni mustahkamlaydi. Milliy birdamlik turli sinflar, tabaqalar, qatlam vakillarining Vatan manfaatlari atrofida birlashganligi darajasini ifodalovchi tushunchadir. U millat mavjudligi va taraqqiyotining asosiy manbai hisoblanadi. Birdamlik bo‘lsagina millat voqe bo‘ladi, uning yemirilishi millatning ham tarix sahnidan tushishiga sabab bo‘ladi.

Har qanday millat tarkibi o‘zining murakkab xarakteri bilan tavsiflanadi. U ko‘plab sinflar, tabaqalar, qatlam vakillaridan tarkib topishi bizga yaxshi ma’lum. Tabiiyki, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy ehtiyoj va manfaatlari bir-biridan tubdan tafovutlanadi. Albatta, bunday tafovutni millat borlig‘ining o‘ziga xos xususiyati sifatida baholamoq darkor. Biroq ayni paytda ular uchun umumiyl bo‘lgan manfaatlar bo‘lmasa, turli sinf va tabaqa vakillari yagona manfaatlar atrofida bir-

lashmasa, milliy taraqqiyot sur'atlari benihoya susayadi. Millat vakillari-ning yagona – Vatan manfaatlari atrofida birlashuvi milliy birdamlikni shakllantiradi. Binbarin, milliy birdamlik millatning tarix sahnida saqlanib qolishini, taraqqiy topishini ta'minlovchi qudratdir [2; 103-b].

Lekin XX asrda milliy birdamlikka xavf soluvchi yangi omil vujudga keldi. Bu davrga kelib millat vakillari nafaqat u yoki bu sinf, tabaqaga mansubligiga qarab, balki diniy konfessiyaga dahldorligiga, dinga munosabatiga qarab ham tafovutlana boshladilar. Zamonaviy jamiyatda bir millat vakili bo'lsada, turli diniy konfessiyalarga mansub kishilar toifasi paydo bo'lmoqda. Hindiston va Xitoyda ko'p asrlardan buyon mavjud bo'lgan mazkur tendensiya bizning davrimizga kelib qator rivojlangan mamlakatlarda ham bo'y ko'rsatdi. O'zbekistonda ushbu tendensiya o'ziga xos rakursda yuz bermoqda. To'g'ri, o'zbeklar orasida boshqa diniy konfessiya vakillari nihoyatda kam uchraydi. Biroq ularni dinga munosabatiga qarab tasniflash mumkin. Millat vakillari diniy konfessiyaga mansubligiga qarab ham tafovutlana boshlagan bir vaziyatda diniy bag'rikenglik milliy birdamlikni ta'minlovchi omil darajasiga ko'tarilmoqda. Chunki o'zga din vakillariga sabr-toqat va xayrihohlik bilan munosabatda bo'lishga odatlangan shaxs o'z millatdoshining diniy e'tiqodini yoxud bunday e'tiqodning mavjud emasligini "hazm" qila oladi, uning o'z e'tiqodi va istaklariga tayanib turmush kechirishiga mone'lik qilmaydi. Bunday kishilarni o'zga diniy e'tiqod vakillari bilan Vatan manfaatlari yo'lida hamkorlik qilishga undash oson kechadi.

Diniy bag'rikenglik tamoyillari keng tatbiq etilgan mamlakatlarning bugungi tajribasi ham fikrimizni isbotlab turibdi. Masalan, polyaklarning 86,9 foizini katoliklar, 1,3 foizini pravoslavlар, 0,36 foizini protestantlar tashkil etadi. Biroq bunday tafovut o'zgalarning diniy e'tiqodiga sabr-toqat bilan munosabatda bo'lishga odatlangan polyaklarning Vatan manfaatlari yo'lida birdamlikda faoliyat ko'rsatishlariga, yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarni hamjihatlikda bartaraf etishlariga, mavjud ziddiyatlarni xotirjamlik bilan hal qilishlariga xalal bermayapti. Bu faktlar diniy bag'rikenglik milliy bardamlikni ta'minlovchi muhim omil ekanlididan dalolat beradi [3; 43-b].

Ikkinchidan, diniy bag'rikenglik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy barqarorlik deganda jamiyat ijtimoiy tizimining turli tahdidlarga bardoshliligi darjasи nazarda tutiladi. Uning strategik ahamiyatini isbotlab o'tirishning hojati yo'q bo'lsa kerak. Insoniyat tarixining ibtidosidan buyon barcha davrlarda ijtimoiy barqarorlik sotsium mavjudligi va taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Bugun ham ko'plab mutaxassislar jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omillar haqida gapirganda ijtimoiy barqarorlikni birinchi o'ringa qo'yadilar. Ijtimoiy barqarorliksiz jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tuzilishini saqlab bo'lmaydi. Biror ahamiyatlari taraqqiyot dasturini uningsiz amalga oshirishning imkonи yo'q. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari va imkoniyatlari talaygina.

Endi masalaning mohiyatiga diniy bag‘rikenglik pozitsiyasidan nazar tashlaylik. Birinchidan, har qanday jamiyatdagi moddiy va ma’naviy qadriyatlar bir emas, bir necha millat, diniy konfessiya vakillarining asrlar davomidagi fidokorona mehnati evaziga yaratilgan. Diniy bag‘rikenglik nafaqat bir dinga mansub kishilar yaratgan qadriyatlarning, balki turli konfessiya vakillari tomonidan bunyod qilingan qadriyatlarning ham vorisiyligini ta’minlaydi va shuning bilan ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, ijtimoiy taraqqiyot davomida ma’naviy qadriyatlар evrilibshlarga uchrar ekan, diniy qadriyatlар ham transformatsiyalana boradi. Diniy bag‘rikenglik diniy qadriyatlardagi o‘zgarishlarni ham oqilona qabul qilish imkonini yaratadi va shuning bilan ijtimoiy beqarorlikni vujudga keltiruvchi kayfiyatlarga barham beradi. Uchinchidan, diniy institutlar ham jamiyat hayotining turli sohalaridagi o‘zgarishlarga mutanosib ravishda yangilana boradi. Diniy bag‘rikenglik jamiyat a’zolarini mazkur yangilanishlarni ham ob’ektiv jarayon sifatida qabul qilishga odatlantiradi. Ko‘rinib turibdiki, diniy bag‘rikenglik har qanday jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qodir bo‘lgan ahamiyatli omillar turkumiga kiradi [4; 16-b].

Uchinchidan, diniy bag‘rikenglik millatlararo totuvlikni rivojlantiradi. Millatlararo totuvlik turli millat va elat vakillarining bir jamiyatda hamjihatlikda yashashi uchun yaratilgan imkoniyatlarni o‘zida ifodalovchi tushunchadir. U ko‘pmillatli mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi manbalardan biri hisoblanadi. Chunki bunday mamlakatlarda turli millat va elat vakillari o‘rtasida hamjihatlik va o‘zaro ishonch bo‘lmasa yurt ravnaqi to‘g‘risida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

XX asrning o‘rtalariga qadar mutaxassislar jahon mamlakatlarini bir millatli, ikki millatli va ko‘p millatli mamlakatlarga tasniflar edilar. Bunda bir millatli mamlakatlar qatoriga - Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya, Italiya, ikki millatli mamlakatlar turkumiga – Kanada, Belgiya, Xorvatiya, ko‘p millatli mamlakatlar sarasiga – Hindiston, Nigeriya, Shvetsariya va boshqalar kiritilardi. Biroq XX asrning ikkinchi yarmida avj olgan globallashuv jarayonlari, migratsiya oqimlarining intensivlashuvi vaziyatni tubdan o‘zgartirib yubordi. Bugungi kunga kelib, jahonda bir millatli tarkibga ega bo‘lgan mamlakatlar deyarli qolmadi. Masalan, Germaniya aholisining 91,5 foizini nemislari, 2,4 foizini turklar, 6,1 foizi-ni boshqa millat vakillari tashkil etadilar. Yaponiya aholisining 98,5 foizi yapon millatiga, 0,5 foizi koreys millatiga, 0,4 foizi xitoy millatiga, 0,6 foizi boshqa millatlarga mansub. Shvetsiyada shvedlar va finlar bilan bir qatorda kelib chiqishi suriyalik, iroqlik, eronlik, polshalik bo‘lgan fuqarolar istiqomat qilmoqdalar. Ayni paytda bu va boshqa mamlakatlarda milliy tarkibning boyishi jarayoni davom etmoqda. Shu munosabat bilan turli millat va elat vakillari o‘rtasidagi totuvlikni ta’minlash masalasi ahamiyatiga molik masalalardan biriga aylandi [5; 104-b].

Jamiyatda millatlararo totuvlik muhiti hukm surishi uchun bir millat vakillari o‘zga millatlarning tili, tarixi, qadriyatlari, urf-odatlari va marosimlari, dinini hurmat qilishga odatlangan bo‘lmoqlari lozim. Shu kontekstda fikrlaganda, diniy bag‘rikenglikning millatlararo totuvlikni ta’minlash omillaridan biri sifatidagi roli ayon bo‘ladi. Chunki diniy bag‘rikenglik tamoyillarini puxta o‘zlashtirgan va hayotiy faoliyatining qoidalaridan biriga aylantirgan shaxs o‘zga millatning har qanday ma’naviy qadriyatlarini, jumladan diniy qadriyatlarini ham hurmat qilishga qodir bo‘ladi. Binobarin, jamiyatda diniy bag‘rikenglik tamoyillari ildiz ota borgani, o‘zga dinlarga sabr-toqatli munosabatda bo‘lishga moyil kishilarining ko‘paygani sayin millatlararo totuvlik ham rivojlna boradi. Xuddi shuning uchun ham mamlakatimiz rahbari: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi” - deb ta’kidlagandi.

Xorij mamlakatlari tajribasi ham diniy bag‘rikenglik tamoyillarining qaror toptirilishi millatlararo totuvlikni ta’milashga xizmat qilishini yaqqol isbotlab turibdi: qaysi mamlakatda o‘zga din vakillariga sabr-toqat qilish odat tusini olgan bo‘lsa, boshqa diniy konfessiyaga mansub jamiyat a’olariga tazyiq o‘tkazilmasa, o’sha mamlakatda turli millat vakillari hamjihatlikda istiqomat qilmoqdalar. Sirasini aytganda, Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya kabi mamlakatlarning so‘nggi yarim asrda bir millatli mamlakatdan ko‘p millatli mamlakatga aylanib qolganining tag-tomiri ham shunda [6; 142-b].

To ‘rtinchidan, diniy bag‘rikenglik jamiyatning mafkuraviy xavfsizligini kuchaytiradi. Mafkuraviy xavfsizlik jamiyat xavfsizligining eng muhim ko‘rinishlaridan biridir. U “milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarning himoyalanganligi, jamiyat a’zolarida milliy g‘oyaga sadoqat ruhining qaror topganligi, turli g‘ayriinsoniy g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetning shakllanganligi, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va mafkuraviy profilaktika tizimining samaradorligi darajasini ifodalovchi tushunchadir”. Yangi asr arafasiga kelib, jamiyatning mafkuraviy xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar nihoyatda ko‘paydi. Masalan, globallashuv natijasida g‘arbona ommaviy madaniyatning sayyora bo‘ylab jadal tarqalib borayotgani turli millatlarning urf-odat va an’analarini jiddiy tahdid ostida qoldirmoqda. G‘ayriinsoniy g‘oyalar targ‘ibotining avj olgani jamiyat a’zolarini, ayniqsa yoshlarni milliy g‘oyaga sadoqat ruhida voyaga yetkazishga xalal bermoqda. Keyingi yillarda murakkablashgan geosiyosiy munosabatlar ham millatlarning xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilayotgani yo‘q. Shu sababdan jahonning barcha mamlakatlari mafkuraviy xavfsizlikni o‘z milliy xavfsizlik konsepsiyanining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylan-tirmoqdalar.

Yuzaga kelgan vaziyatda mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning muhim manbalaridan biri diniy bag‘rikenglik bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Chunki diniy

bag'rikenglik g'oyalari puxta o'zlashtirgan jamiyat a'zosi nafaqat o'z dini, balki boshqa dinlarning ham asosiy aqidalaridan voqif bo'ladi, nafaqat o'z millati, balki boshqa millatlarning urf-odat, an'ana va qadriyatlarini o'zlashtirishdan, o'rganishdan iymanmaydi. Buning oqibatida uning ham diniy, ham dunyoviy savodxonligi yuksaladi. Uni soxta g'oyalari, milliy mentalitetga va turmush tarziga mos tushmaydigan, inson qadr-qimmatini kamsitadigan "ta'limotlar" bilan aldab bo'lmaydi. Mamlakatimiz rahbari ham jamiyat mafkuraviy xavfsizligini ta'minlash masalalari juz'an diniy bag'rikenglikni ta'minlash, uni diniy munosabatlarning asosiy tamoyiliga aylantirish masalalariga borib taqalishini bir necha bor e'tirof etib o'tgandi. "Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda,- degan edi u,- biz yurtimizda tinchlik osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart. Bu - zamon talabi. Avvalo, shu yo'nalishda shakllangan tizim samaradorligini yanada oshirishimiz, ayniqsa, diniy masalalar bilan bevosita shug'ullanadigan hokim o'rribbosarlari, mutasaddi tashkilotlar mas'uliyatini yanada kuchaytirishimiz zarur".

Beshinchidan, diniy bag'rikenglik jamiyat a'zolari madaniy saviyasini yuksaltiradi. "Bugungi kunda madaniy saviya deganda inson ijtimoiy qiyofasining o'ta muhim alomatlaridan biri tushuniladi. Madaniy saviya shaxsning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan voqifligi me'yorini, insoniyat tomonidan asrlar davomida to'plangan bilim va g'oyalarni o'zlashtirganligi darajasini, mazkur qadriyatlар va bilimlar asosida faoliyat ko'rsatish ma-lakasini ifodalovchi tushunchadir". Ta'rifdan ko'rilib turibdiki, shaxs o'z madaniy saviyasini yuksaltirishi uchun milliy va umumiinsoniy qadriyatlар to'g'risidagi bilimlari doirasini kengaytirmog'i, insonparvarlik g'oyalarning mohiyatini chuqur o'zlashtirmog'i, ushbu bilim va g'oyalarni asosida faoliyat ko'rsatishga odatlanmog'i darkor. Lekin buning uchun u avvalo o'zga qadriyat va g'oyalarga xolis munosabatda bo'lishga, uni ob'ektiv baholashga tayyor bo'lishi kerak. Diniy bag'rikenglik ana shunday dunyoqarashiy va metodologik pozitsiyani qaror toptirish imkonini beradi. O'zga millatlar-ning dinini, diniy marosimlarini, diniy hayotini xotirjam qabul qilishga, ularni asossiz tanqid qilmaslikka odatlangan kishigina ularning qadriyatlarni, umuminsoniy madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini qadrlay oladi, ularni o'rganishdan iymanmaydi. Buning natijasida uning madaniy saviyasi yuksaladi, turli milliy va umuminsoniy g'oya hamda qadriyatlар haqidagi tasavvurlari kengayadi [7; 74-b].

Oltinchidan, diniy bag'rikenglik mamlakatning xalqaro maydonidagi nufuzini oshiradi. Bizning davrimizga kelib, jamiyat a'zolarining farovon turmushi mamlakatning xalqaro maydonidagi nufuziga bog'liq bo'lib bormoqda. Masalan, farovon turmush barqaror iqtisodiy taraqqiyot mahsulidir. Biroq bugungi vaziyatda mamlakat iqtisodiy jihatdan taraqqiy topishi uchun xalqaro iqtisodiy aloqalarning teng huquqli sub'ektiga aylanmog'i, o'zga mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni

yo‘lga qo‘ymog‘i darkor. Bu aloqalar esa mamlakat nufuziga borib taqaladi. Chunki jahon mamlakatlari ishonchli, iqtisodiy salohiyatga ega, o‘z barqarorligini ta’minlagan yurt sifatida obro‘ topgan sub’ektlar bilan munosabatda bo‘lishni ma’qul ko‘radilar. Ijtimoiy va siyosiy sohalardagi xalqaro munosabatlar xususida ham shunday deyish mumkin. Bu sohalarda ham mamlakat xalqaro mavqeい va obro‘-e’tibori muhim rol o‘ynaydi. Bir qarashda mamlakatda diniy bag‘rikenglikning shakllanganligi darajasi bilan uning xalqaro nufuzi o‘rtasida biror bir aloqadorlik yo‘qdek tuyuladi. Aslida bunday emas. Bugungi kunda diniy bag‘rikenglikning shakllanganligi darajasi mamlakat xalqaro nufuzini belgilovchi mezonlardan biriga aylangan. Misol uchun, AQSh Diniy erkinlik masalalari bo‘yicha xalqaro komissiyasi bu boradagi vaziyatni muttasil o‘rganib, o‘z xulosalarini taqdim qila boradi. Bu xulosalar davlatlarning nufuzi va obro‘-e’tiboriga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Jahon mamlakatlari u yoki bu diyorlar bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishda xususan ana shunday xulosalarga ham tayanadilar. Binobarin, diniy bag‘rikenglik nafaqat mamlakatdagi milliy birdamlik va ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlovchi, nafaqat jamiyat a’zolari madaniy saviyasini yuksaltiruvchi, balki uning xalqaro miqyosdagi mavqeい va obro‘-e’tiborini oshiruvchi omil vazifasini ham o‘taydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonaviy jamiyatda diniy bag‘rikenglik salmoqli ijtimoiy potensialga egaligi bilan xarakterlanadi. Ushbu g‘oyani qabul qilgan va o‘z turmushining turli jabhalariga maqsadga muvofiq ravishda tatbiq eta olgan jamiyatda nafaqat ijtimoiy va ma’naviy sohalarda, balki iqtisodiy va siyosiy sohalarda ham tub sifatiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Diniy bag‘rikenglikning ijtimoiy potensiali milliy birdamlikni mustahkamlashga, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga, millatlararo totuvlikni rivojlantirishga, jamiyat a’zolari madaniy saviyasini yuksaltirishga, mamlakatning xalqaro maydonidagi nufuzini oshirishga xizmat qilishida namoyon bo‘ladi [8; 106-b].

Xulosa shuki, **birinchidan**, diniy bag‘rikenglik bir diniy konfessiya vakilining boshqa diniy konfessiya vakiliga nisbatan sabr-toqati va xayrihohligi darajasini ifodalovchi tushunchadir. Uni, bir tomonidan, umuminsoniy ahamiyatga molik g‘oya, ikkinchi tomonidan, amaliy faoliyat tamoyili sifatida talqin qilish mumkin;

ikkinchidan, Diniy bag‘rikenglik g‘oyasining vujudga kelishi va takomil topishi ijtimoiy ongning o‘ziga xos shakli bo‘lgan din rivojidagi ayrim tendensiylar, diniy munosabatlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish zaruriyati bilan bog‘liq;

uchinchidan, diniy bag‘rikenglikning asosiy xususiyatlari har qanday dinning mavjud bo‘lishga haqli ekanini tan olish, jamiyat a’zolarining diniy e’tiqodlari va marosimlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularni tanqid qilishdan tiyilish, o‘zga din vakillariga, boshqa diniy konfessiya vakillari va birlashmalar, dunyoviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga tayyorlik bilan bog‘liq;

to‘rtinchidan, diniy bag‘rikenglikning ijtimoiy potensiali milliy birdamlikni mustahkamlashga, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga, millatlararo totuvlikni rivojlantirishga, mafkuraviy xavfsizlikni kuchaytirishga, jamiyat a’zolari madaniy saviyasini yuksaltirishga, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilishida namoyon bo‘ladi;

beshinchidan, diniy bag‘rikenglik potensialidan oqilona foydalanilgan jamiyatda ijtimoiy va ma’naviy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda tub sifatiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Mamlakatimiz rahbari ham jamiyat mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash masalalari juz’an diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, uni diniy munosabatlarning asosiy tamoyiliga aylantirish masalalariga borib taqalishini bir necha bor e’tirof etib o‘tgan “Ana shunday tahlikali vaziyatni hisobga olgan holda,- degan edi u,- biz yurtimizda tinchlik osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart. Bu - zamon talabi. Avvalo, shu yo‘nalishda shakllangan tizim samaradorligini yanada oshirishimiz, ayniqsa, diniy masalalar bilan bevosita shug‘ullanadigan hokim o‘rinbosarlari, mutasaddi tashkilotlar mas’uliyatini yanada kuchaytirishimiz zarur”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy barkamol yoshlar - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir.// Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. J.1.- T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yurt qahramonlarining qadri baland, xotirasi muqad-das.// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.:O‘zbekiston, 2018.
3. Niyozov G‘., Ahmedov A. Sharqona odob-ahloq-milliy tarbiyamiz asosi.-T.: O‘zbekiston, 2012, 7-8-betlar.
4. Qoriev U., Hakimjonov M. Arabi ajamlar ustozи//O‘zbekiston adabiyoti va san’ati jurnali. 2007 yil, №2, 48-49-betlar.
5. Niyozov G‘., Ahmedov A. Sharqona odob-ahloq-milliy tarbiyamiz asosi.-T.: O‘zbekiston, 2012, 102-103-betlar.
6. Qoriev U., Hakimjonov M. Arabi ajamlar ustozи//O‘zbekiston adabiyoti va san’ati jurnali. 2007 yil, №2, 74-75-betlar.
7. Abulqosim Mahmud az-Zamahshariy. Rabi’-ul-abror va nusus-ul-axbor. J.4.-Bog‘dod, 1975, 145-bet.
8. Abdurazakova M., Abidjanova D., Bekmuradov M. va b. Tinchlik va bag‘ri-kenglik atamalari: Izohli lug‘at. – T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2005